

AXBOROT TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Xurramova Sevinch O'rol qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
24-02-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot nima ekanligi, axborotning turlari, inson hayotida axborotlarning o'rnini, axborot tarqatishning rivojlanish tarixi, axborot tushunchasining qachon va qayerda paydo bo'lgani va axborotning evolutsion davri haqidagi masalalar yoritiladi.*

Kirish so'zlar: *Inson, axborot turlari, internet, "axborotlashgan jamiyat".*

Axborot tushunchasi nimani anglatadi? Qadimgi Gresiyada bu termin «ko`rinishni berish», «tasavvurlash» ma`nosida tushunilgan.³² Axborot insonlar o`rtasida uzatiladigan ma'lumotlar hisoblanib, keying vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega. Axborot tushunchasi turli sohalarda turlicha izohlanadi. Axborot tushunchasi haqida so'z borganda axborotlarni insonlar ongida qay holda gavdalanishi va qay yo'sinda insonlar bu voqealarni idrok etishlari juda muhim jarayondir. Sababi hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda axborotlar har xil maqsadlar yo'lida tarqatilmoqda. XX asrda fan-texnikaning va sanoatning rivojlanishi natijasida hosil bo`ladigan va saqlanadigan axborotlar hajmi shu darajada ortib ketdiki, natijada ularning hammasini insonlar qabul qilishi, saqlashi va qayta ishlashi mumkin bo`lmay qoldi. Hosil bo`layotgan axborotlarni sinflarga bo`lish, saqlash, axborotlarni harakatlanish qonuniyatini yaratish muammosi hosil bo`ldi. Bu muammoni hal qilish uchun olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida informatika deb atalmish fan paydo bo`ldi. Boshlang`ich bosqichda informatika kutubxona ishining bazasi hisoblangan va ko`p yillar yordamida uni mukammallashtirish nazariyasi va amaliyoti bilan shug`ullanib kelgan.³³ Bundan tashqari bir xil mazmundagi axborotni har xil yo'sinda tahlil qilish jarayonlari hozirgi kunda ommalashib ketayotgan jarayonlardan biridir. Misol tariqasida insonlarning bir-birlariga yordamlashib ya'ni insoniylik yuzasidan qilingan hayrli ishlar ham tanqid ostiga olinib bayon etillayotgan hollarga ham duch kelyapmiz. Axborotlarni qabul qilganimizda avvalo ularning qay darajada haqiqatga yaqinligi yuzasidan so'z yuritishimiz kerak. Axborotlar uzatilish usullariga ko'ra bir necha ko`rinishga egadirlar:

Matnli axborot;

³² O'zbekiston milliy ensklopediyasi (2000-2005)

³³ T.X. Holmatov "Informatika va hisoblash texnika asoslari"

- Belgili axborot;
- Rasmi axborot;
- Videolavhali axborot.

Axborotlar insonlar hayotida balki, davlatlar, hokimyatlar uchun ham muhim manbaa hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, nemis olimlari muhim axborotga ega bo'lish hokimiyatga ega bo'lish ekanligini, muhim axborotlarni muhim emaslaridan ajratish esa yanada ko'proq hokimiyatga ega bo'lish ekanligini aytib o'tishganlar. Hozirgi jamiyatimizga nisbatan "axborotlashgan jamiyat" iborasini ishlatish o'rinli bo'lsa kerak degan umiddaman. Axborotlashgan jamiyat deb axborotlarni uzatish va qabul qilish jarayonining tez va oson amalga oshishi va bu jarayonda kompyuter va boshqa texnologik vositalarni qo'llanilishiga nisbatan ishlatiladi. "Axborot" termini har bir sohada alohida talqin etiladi: kompyuterlarda axborotdan boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi vosita sifatida, falsafada esa axborot inson ongiga ta'sir etuvchi obektiv hodisa sifatida qo'llaniladi. Hozirgi kunda axborotlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

- Texnik axborot;
- Siyosiy axborot;
- Iqtisodiy axborot;
- Huquqiy axborot.³⁴

Bu axborot turlarini 100% deb oladigan bo'lsak, 80%i iqtisodiy axborot sohasiga tegishli hisoblanadi. Axborotlar uzluksiz hosil bo'ladi, harflar yoki raqamlar orqali ifodalanadi. Yer yuzida jonli hayot mavjud bo'lishi bilan axborot almashinuv jarayoni vujudga kelgandir. Bu o'rinda siz bilan axborotni tarqatish tarixiga birozgina to'xtalib o'tsak:

- piktografik yozuvlar;
- XV asrdan gazeta, jurnallar;
- 1900-yillardan kino;
- 1910-yillardan esa radio;
- 1990-yillardan interknit;
- 2000-yillardan buyon mobil telefonlar.

Qadimgi davrlarda axborotlar uzoq masofalarga uzatishda kabutarlar, piyoda yoki otliqlardan foydalanishgan. Shu sababli bir kunlik yo'llarga otlarni almashtirib olish uchun maxsus joylar qurilgan.³⁵

Dunyodagi birinchi gazetalar Germaniyada 1605-yildan buyon nashr etilmoqda. Venitsiyada ishlatiladigan mayda tangalar-gazeta deb atalgan. Bu so'z keyinchalik hozirgi paytdagi kabi gazetalarga nisbatan qo'llanila boshlagan. "Jurnal"- fransuzcha

³⁴ Sh.Narimov "Informatika va axborot texnologiyalari"

³⁵ O'zbekiston milliy ensklopediyasi (2000-2005)

jurnal “kundalik, kunlik eslatma” Fransuzcha “jour-kun” degan ma’noni anglatadi. Dastlabki jurnal 1663-yil Germaniyada nashr etilgan.

Telegraf-yunoncha “uzoq yozaman” degan ma’noni bildiradi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda butun dunyoda hozirgi kunda internet foydalanuvchilar soni 7,9 mlrd ni tashkil etmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tmoqchimanki, axborot almashinuv jarayoni uzoq va to’xtovsiz davom etadigan jarayondir. Axborotning ko’pligi insonlar hayotiga salbiy ta’sir etishi fan tomonidan o’rganilgan. Katta-katta shaharlarda axborotlarning haddan ortiqligi natijasida insonlarda har xil kasaliklar xavfi oshmoqda, shu kasaliklardan biri miyaga qon quyilishidir. Bundan tashqari millatimiz mentalitetiga yot g’oyalarning kirib kelishidagi asosiy vositalar bu axborotlardir. Inson axborot olamida yashayotgani bu haqiqat lekin, bu axborotlarni hammasini anglagan holda, axborotlardan va ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. O’zbekiston milliy ensklopediyasi (2000-2005)
2. Abdug’aprov Shaxriyor kurs ishi: Axborot, uning turlari va fan uchun ahamiyati, xususiyatlari
3. T.X. Holmatov ”Informatika va hisoblash texnika asoslari”
4. Sh.Narimov “Informatika va axborot texnologiyalari”